



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

NORMA IJODKORLIGI JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA MAZMUN-MOHİYATI

HAMDAMOV Shahzod Maqsud o'g'li

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq
instituti tayanch doktoranti

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): HAMDAMOV Sh.M.
Norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish tushunchasi va mazmun-mohiyati // Юрист
ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2025) B. 8–14.



3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish tushunchasi, mazmun-mohiyati, norma ijodkorligi faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati ilmiy o'rganilgan. Maqolada norma ijodkorligi faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari, bugungi kunda norma ijodkorligi faoliyatida foydalanilayotgan axborot tizimlarining faoliyati va ularning huquqiy asoslari nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: norma, raqamlashtirish, axborot, qonunchilik, normativ-huquqiy hujjat, norma ijodkorligi, texnologiya, portal, elektron tizim.

THE CONCEPT, CONTENT AND ESSENCE OF THE DIGITALIZATION PROCESS OF NORM-MAKING

HAMDAMOV Shahzod

Doctoral student of the Institute of State and Law of the
Academy of Sciences of Uzbekistan

ANNOTATION

In this article, the concept of digitalization of norm-making activity, its essence, the role and significance of the use of information technologies in norm-making activity are scientifically studied. The article analyzes from a theoretical and legal point of view the legal basis for the introduction of information technologies into norm-making activities, the activities of information systems used today in norm-making activities, and their legal foundations.

Keywords: Norm, digitalization, information, legislation, normative-legal act, norm-making, technology, portal, electronic system.

ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРОЦЕССА НОРМОТВОРЧЕСТВА

ХАМДАМОВ Шахзод

Докторант Института государства и права
Академии наук Узбекистана

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно изучены понятие, сущность и значение цифровизации нормотворческой деятельности, роль и значение использования информационных технологий в нормотворческой деятельности. В статье с теоретико-правовой точки зрения анализируются правовые основы внедрения информационных технологий в нормотворческую деятельность, деятельность информационных систем, используемых сегодня в нормотворческой деятельности, и их правовые основы.

Ключевые слова: норма, цифровизация, информация, законодательство, нормативный правовой акт, нормотворчество, технология, портал, электронная система.

Norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini oshirish davlat organlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirishni o'rganar ekanmiz, birinchi navbatda norma ijodkorligi tushunchasining mazmuni va mohiyatini atroflicha o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Norma ijodkorligi tushunchasi, maqsadi, vazifalari masalalari har doim tadqiqotchilar diqqat-e'tibori markazida bo'lgan.

Xorijlik olimlardan M.P.Carey, B.Dooling, T.Garvey, J.S.Lubbers, Y.N.Yarmonova, S.I.Girko, G.S.Skachkova, Yu.G.Arzasov, Y.Y.Tonkov va K.Y.Pavlovalar tomonidan norma ijodkorligi jarayoni ilmiy o'rganilgan. Xususan, AQShlik olim M.P.Carey norma ijodkorligi (rulemaking) jarayoni federal idoralar tomonidan normalarni ishlab chiqish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda ularni bekor qilish [1], B.Dooling normalarni ishlab chiqish va joriy etish [2, B.895], T.Garvey [3, B.5] va J.S.Lubberslar mazkur jarayon "xabar va izoh" (notice and comment) tizimidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjat loyihasini jamoatchilikka e'lon qilish, jamoatchilikning taklif va tavsiyalarini to'plash hamda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish jarayonlarini qamrab olishini qayd etishadi [4].

Bundan tashqari, rus olimlaridan Y.N.Yarmonova norma ijodkorligi jarayoni yangi huquq normalarini ishlab chiqish va tasdiqlash [5, B.2], S.I.Girko vakolatli subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik jarayonlar [6, B.43], G.S.Skachkova normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni [7, B.60], Yu.G.Arzasov normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish, loyihani tasdiqlash, turli ekspertizalardan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish hamda e'lon qilish [8, B.27], Y.Y.Tonkov va K.Y.Pavlovalar esa qonunchilik tashabbusini amalga oshirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, imzolash, rasmiy nashr etish va kuchga kirishi [9, B.155] kabi jarayonlarni qamrab olishini ta'kidlashadi.

Milliy huquqshunos olimlardan H.T.Odilqoriyev, M.K.Najimov, A.A.Xujanazarov, Sh.Ruzinazarov va S.Inoyatovalar tomonidan norma ijodkorligi jarayonining huquqiy jihatlarini tadqiq etilgan. Jumladan, H.T.Odilqoriyev fikricha, norma ijodkorligi jarayoni normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi [10, B.250]. Sh.Ruzinazarov va S.Inoyatovalar norma ijodkorligi jarayonini normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish, unga o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritish, bekor qilish hamda monitoringini amalga oshirishdan iborat deb bilishadi [11, B.6].

M.K.Najimov fikricha, norma ijodkorligi faoliyati quyidagi tarkibiy jarayonlarni o'z ichiga oladi: normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish tashabbusi, loyihani ishlab chiqish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, loyihani yuridik xizmat tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish, loyihani manfaatdor organlar va tashkilotlar bilan kelishish, loyihani adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish, tarqatish, normativ-huquqiy hujjatning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qilish [12, B.18].

A.A.Xujanazarov "Adliya organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida norma ijodkorligi tushunchasini quyidagicha talqin etgan: "norma ijodkorligi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi dastlabki takliflarni shakllantirish, loyihani ishlab chiqish faoliyatini rejalashtirish, loyihalarni tayyorlashni tashkillashtirish, loyihani ishlab chiqish, loyihani huquqiy va boshqa turdagi ekspertizalardan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish, loyiha muhokamasi, loyihani manfaatdor idoralar bilan kelishish, loyihani ko'rib chiqishda ishtirok etish, loyihani ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash uchun kiritish kabi jarayonlarni qamrab olgan faoliyat hisoblanadi" [13, B.11].

Yuqoridagilardan kelib chiqib norma ijodkorligiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "Norma ijodkorligi – davlat organlari tomonidan davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash, uni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish hamda loyihani adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazish va loyihani tasdiqlash uchun kiritish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi huquqiy faoliyat".

Bugungi kunda amaldagi qonunchilik vujudga kelgan raqamli voqelikka to'liq mos kelmaydi. Bu esa yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda orqada qolayotganini bildiradi. Shu bois normativ-huquqiy bazani zamon talablariga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Microsoft bosh direktori Satya Nadella ushbu holatga e'tibor qaratib, innovatsion texnologiyalardan ishonchli foydalanish tegishli tartibga solish muhitisiz mumkin emasligini va eskirgan qonunchilik mavjud muammolarni hal qilish uchun yetarlicha moslashtirilmaganligini ta'kidlaydi [14, B.11-12].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish, unga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish qonunchilikning yangi raqamli shaklini yaratishga asos bo'ladi va bu ilg'or rivojlanish sari ulkan qadam bo'ladi. Jumladan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Raqamlashtirishdan maqsad-muddaomiz nima o'zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo'yish, adolatni ta'minlash" [15].

Shu maqsadda raqamli texnologiyalar ko'lamini kengaytirish va ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi [16].

Umuman olganda raqamlashtirish – bu turli obyektlar, hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli formatga o'tkazish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, uni axborot texnologiyalari orqali elektron holatda saqlash va uzatish jarayonidir.

“Norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish” deganda norma ijodkorligi faoliyatining barcha bosqichlarida, shu jumladan norma ijodkorligi subyektlarining mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan va hosil bo'ladigan axborotni raqamli shaklga o'tkazish, tushuniladi [17, B.188].

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti kuzatilayotgan mazkur davrda ko'plab sohalarda raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularni avtomatlashtirish jarayonlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, norma ijodkorligi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu nuqta'i nazardan hozirga qadar ko'plab olimlar tomonidan norma ijodkorligi jarayoniga raqamli texnologiyalardan foydalanib normalar yaratish takliflari ilgari surilgan.

Xususan, raqamli transformatsiyani ijobiy baholagan A.V.Minbaleyevning fikricha, bugun butun dunyoda huquqiy normalar va normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yaratish jarayonida raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan juda samarali foydalanilmoqda. Bunday texnologiyalar normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining yangi tahrirlarini shakllantirishda, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi [18, B.72-85]. Bugungi kunda norma ijodkorligi faoliyatiga raqamli texnologiyalar, shu jumladan sun'iy intellektni joriy etish tajribalari rivojlangan G'arb davlatlari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Yevropa davlatlari parlamentlari tomonidan norma ijodkorligi faoliyatida sun'iy intellektidan foydalanib normalar yaratilmoqda.

Xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalangan holda yurtimizda ham huquq sohasida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish amaliyoti joriy etilmoqda. Xususan, Adliya vazirligi tomonidan “Lex AI” platformasi ishga tushirildi. “Lex AI” platformasi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan savollarga huquqiy javobgarlikka tortish, yuridik tekshirish hujjatlarini huquqshunos ishtirokisiz, konstruktor asosida mustaqil ishlab chiqishga, qonunchilik hujjatlarini onlayn ishlab chiqish va ekspertiza (tavsiyaviy harakterda) tekshiruvlar, qonun hujjatlariga asoslangan huquqiy amaliyotni tahlil qilish asosida aniqlangan holatlarga javob berishga mo'ljallangan yuridik yordamning jamlangan tizimi hisoblanadi [19]. Platforma tomonidan berilgan javoblar va ma'lumotlar tavsiyaviy xarakterga egadir.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, sun'iy intellekt asosida yaratilgan “Lex AI” platformasi qonunchilik bazasini yanada jadallashtirish va aholi o'rtasida bevosita huquqiy savodxonlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, bugungi kunda ushbu platforma faqat ma'lumot olish uchun ishlatilayotgan bo'lsa, kelgusida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni ekspertizadan o'tkazish va ayrim protsessual hujjatlarni sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, sun'iy intellekt asosida yaratilgan “Lex AI” platformasi bugungi kunda pullik qilib qo'yilgan. Bu esa undan foydalanishni tezda ommalashib ketishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu tizimdan foydalanish juda noqulay tashkil etilgan. Ushbu noqulayliklarni bartaraf etish orqali mazkur tizimning ommalashishiga zamin yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Shu bilan bir qatorda, V.M.Belov matematika, dasturiy ta'minot va boshqa avtomatlashtirish vositalaridan foydalanishga asoslangan huquqshunoslikda ko'p tarmoqli yo'nalish – “yurismetriya”ni ishlab chiqishni, shu bilan birga huquqshunoslikning tegishli ko'p tarmoqli ilmiy-pedagogik sohasini (tarmog'ini) shakllantirishni taklif etadi [20, B.99-100].

Bundan tashqari, V.M.Belov, E.V.Ziryanova, D.L.Kosovlar yuridik faoliyatda ma'lumotlarni qayta ishlash tartib-qoidalarini rasmiylashtirish va avtomatlashtirishning keskin muammolari mavjud bo'lib, ularni yurismetriya [21, B.14-21], tartibga solish ta'sirini baholash va normativ-

huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazishda – normativ-huquqiy hujjatlar sifatini baholashning avtomatlashtirilgan tizimidan foydalangan holda hal qilish mumkin [22, B.105-110], deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish qonunchilik hujjatlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish, zarur hujjatlar to'plamini shakllantirish, kelishish, ekspertizadan o'tkazish, loyihani qabul qilishgacha bo'lgan va qabul qilingan mazkur turdagi hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, shu jumladan, ekspertizadan o'tkazish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ushbu hujjatlarning bugungi kun talablariga muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha tartib-taomillarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, elektron, shu jumladan, raqamli ko'rinishga o'tkazish tushuniladi. Tor ma'noda esa, norma ijodkorligi jarayonidagi tartib-taomillarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, elektron, shu jumladan, raqamli ko'rinishga o'tkazish nazarda tutiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va e'lon qilishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda elektron norma yaratish jarayoni hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yaratish uchun raqamli platformalardan foydalanish, loyiha matnlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonini avtomatlashtirish, onlayn platformalar yordamida ommaviy muhokama qilish orqali norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish hozirgi zamon talabidir.

Qonun loyihalarini muhokama qilish uchun elektron platformalardan foydalanish norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirishdan ko'zlangan maqsadlardan biri hisoblanadi. Jumladan, mazkur platformalar orqali fuqarolar o'zlarining taklif va mulohazalarini yuborish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yagona portal orqali tizmlashtirildi.

Norma ijodkorligi jarayoni axborot olish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor subyektlar bilan kelishish, uning loyihasini muhokama qilish va imzolangan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarning har biriga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish norma ijodkorligi faoliyatining rivojlanishiga olib keladi. Ushbu masala bo'yicha olimlar tomonidan turli qarashlar ilgari surilgan.

Xususan, xorijlik huquqshunos olimlardan E.Borghetto va M.Giulianilar norma ijodkorligi jarayonining sur'atini axborot almashinuvi bilan uzviy bog'liq ekanligini [23, B.4-6], H.Kluver, I.Sagarzazular esa belgilangan vazifalarni bajarish nuqtayi nazaridan axborot almashinuvini keltirib chiqarishini ta'kidlab o'tadilar [24, B.380-398].

Bundan tashqari, B.K.Karipov norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash bo'yicha yondashuvi "norma ijodkorligini axborotlashtirish" tushunchasi bilan bog'lab, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda axborotlashtirish, huquqiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [25, B.212].

A.A.Arnautova norma ijodkorligi jarayonida zarur bo'lgan axborotlarni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish lozimligini [26, B.39], Ye.V.Skurko bu boradagi ta'minlash masalalariga axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, qidirish, tarqatish, qonun ijodkorligi jarayonida bilvosita va bevosita ishtirok etuvchi subyektlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni kiritish zarurligini [27, B.9] qayd etishgan.

Shu bilan birga, milliy huquqshunos olimlardan A.Sodikov "Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida

norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash masalalariga o'zining qarashlarini bildirib o'tgan. Xususan, uning fikricha, norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash moddiy yoki jismoniy, texnik, dasturiy, kriptografik, ma'muriy (tashkiliy) vositalar yordamida amalga oshirilib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqbul vosita sifatida foydalanilishi zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan (neyron tarmoqlari – “neural networks”, ma'lumotlarni shakllantirish – “data mining”, ekspert tizimlari – “expert systems”) foydalanish norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada Avstriyada “E-Recht”, AQSHda “E-Government”, Avstraliyada “ParlWork”, Daniyada “De-bureaucratisation Programm” dasturlari yordamida axborot almashinuvi samaradorlikka erishilganligi amaliy misol tariqasida keltirib o'tilgan [28, B.14].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, “...qaror qabul qiluvchilar real vaqt rejimida qonun loyihasi ustida ishlarning borishini va norma ijodkorligi jarayonining turli bosqichlarida uning joriy holatini kuzatib borishlari mumkin bo'lgan maxsus boshqaruv paneli yaratilishi kerak” [29, B.101].

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilish jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarini joriy etish hujjatlarning ochiqqligi va tezkorligini ta'minlashdan tashqari, hujjatlarning qog'ozsiz elektron shaklda ishlab chiqilishiga va tegishli organlar o'rtasida raqamli muhitda muvofiqlashtirilishiga zamin yaratadi. Bunda hujjatlar aylanishi elektron hujjat aylanish tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, norma ijodkorligi jarayoni ishlab chiqilishidan tortib to foydalanishigacha bo'lgan jarayonda bitta platforma bo'lishi kerak va bu platforma juda qulay bo'lishi, audio, video, grafik, matnli holatda foydalanish imkoniyatlari avtomatlashtirilgan va sun'iy intellekt bilan lozim darajada to'yintirilgan bo'lishi kerak

Yuqorida tahlil qilingan fikr-mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, norma ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va e'lon qilishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda elektron norma yaratish jarayoni hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yaratish uchun raqamli platformalardan foydalanish, loyiha matnlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonini avtomatlashtirish, onlayn platformalar yordamida ommaviy muhokama qilish orqali norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish norma ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirishning muhim qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, norma ijodkorligi faoliyatining barcha bosqichlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati va samaradorligini yaxshilashga imkon beradi. Bu esa ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarida mavjud kamchiliklarning oldi olinishiga olib keladi. Bundan tashqari, norma ijodkorligi faoliyatida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi norma ijodkorligi faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar faoliyatidagi sansalorlik va ovoragarchiliklarni, shu jumladan ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Carey M.P. The federal rulemaking process: an overview // USA Congressional Research Service 7-5700, www.crs.gov, RL32240. CRS Report for Congress Prepared for Members and Committees of Congress. – Washington: CRS, (June 17, 2013). – 34 p.
2. Dooling B.C.E. Legal issues in e-rulemaking // Administrative Law Review. – Washington: George Mason University, 2011. Vol. 63. – No. 4. – P. 893-932.
3. Garvey T. A brief overview of rulemaking and judicial review // USA Congressional Research Service 7-5700, www.crs.gov, R41546. CRS Report for Congress Prepared for Members and Committees of Congress. – Washington, March 27, 2017. – 17 p.

4. Lubbers J.S. A survey of federal agency rulemakers' attitudes about e-rulemaking // *Administrative Law Review*. – Washington: American University Washington College of Law, 2010. Vol. 62. – No. 2. – P. 451-486.
5. Ярмонова Е.Н. Отличие нормотворчества от правотворчества как одна из основных проблем юриспруденции // *Научно-методический электронный журнал «Концепт»*, 2016. – №516. – С. 1-7.
6. Гирько С.И. Нормотворчество как специализация сотрудников правовых подразделений // *НПЖ «Диалог»*, 2018. – №2 (11). – С. 40-46.
7. Скачкова Г.С. Профессия «норморайтер» и трудовое право // *Норморайтер как профессия: материалы дискуссии*. – Москва: РГ-Пресс, 2019. – 352 с.
8. Арзамасов Ю.Г. Нормография: теория и технология нормотворчества // – М.: Юрайт, 2017. – 460 с.
9. Тонков Е.Е., Павлова К.Е. Нормотворческая деятельность органов внутренних дел: понятие и сущность // *Nomothetika: Философия. Социология. Право*, 2016. – №3 (224). – С. 153-159.
10. Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: шарқ, 2002. (Odilqoriyev X.T. Constitution and civil society. – Sharq, 2002. – P. 250.).
11. Рузиназаров Ш., Иноятова С. Научное стратегическое прогнозирование законотворчества в частноправовой сфере: современные реалии и ориентиры // *Обзор законодательства Узбекистана научно аналитический журнал*. – Т.: ТГЮУ, 2017. – №3. – С. 5-8.
12. Нажимов М.К. Норма и жодкорлиги. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 181 б.
13. Хужаназаров А.А. Адлия органларининг норма и жодкорлиг фаолиятини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа фанлар доктори (PhD) автореферати. – Тошкент, 2021. – Б. 11.
14. Клаус Ш., Дэвис Н. Технологии четвертой промышленной революции. – Litres, 2018. – С. 11-12.
15. Ахборот технологиялари соҳасидаги вазифалар муҳокама қилинди. 22.02.2023 // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5943>.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-son Farmoni. 08.08.2018 // URL: <https://lex.uz/docs/-3858817>.
17. Шаршун В. А. Автоматизированная информационная система «Нормотворчество» как средство цифровизации нормотворческого процесса // *доклады XIX Международной конференции*, Минск, 19 ноября 2020. – С.188.
18. Бондарчук И. В., Руденко А. В., Стрельникова И. Ю. Цифровизация нормотворческой деятельности в условиях информационного общества // *Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Юридические науки*. – 2022. – №. 4 (48). – С. 72-85.
19. "Lex AI" platformasi haqida // URL: <https://ai.lex.uz/about>.
20. Белов В. М. Новая отрасль в юриспруденции-юрисметрия // *Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения*. – 2014. – №. 11. – С. 99-100.
21. Белов В. М., Косов Д. Л., Зырянова Е. В. О юрисметрии как мультидисциплинарном направлении научных исследований в юриспруденции // *Вестник Алтайской академии экономики и права*. – 2016. – №. 2. – С. 14-21.
22. Белов В. М., Зырянова Е. В., Косов Д. Л. Особенности оценки качества нормативных правовых актов. Использование автоматизированной системы оценки качества нормативных правовых актов // *Государство и право*. – 2017. – №. 10. – С. 105-110.
23. Borghetto E., Giuliani M. The pace of the legislative process: A diachronic analysis of the Italian legislature (1996–2006) // *Società Italiana di Scienza politica*. 2008. – P. 4-6.
24. Klüver H., Sagarzazu I. Setting the Agenda or Responding to Voters? Political Parties, Voters and issue attention // *West European Politics*. 2016. – №39(2). – P. 380-398.
25. Карыпов Б.К. Информатизация и цифровизация правотворческой деятельности в Киргизской Республике // *Бюллетень науки и практики*. 2020. – №8. – С. 210-215.
26. Арнаутова А.А. Цифровизация правотворческой деятельности // *«Век качества»*, 2019. – № 2. – С. 32-42.
27. Скурко Е.В. Информационно-правовое обеспечение законодательной деятельности в Российской Федерации // *Диссертация к.ю.н.*: 12.00.01. – М.: РГБ, 2003. – 131 с.
28. Содиков А.Ш. Норма и жодкорлиги жараёнини ахборот билан таъминлаш самарадорлигини ошириш масалалари. Юридик фанлар бўйича фалсафа фанлар доктори (PhD) автореферати. – Тошкент, 2021. – Б. 14.
29. Бурдакова М. А., Бакланова Н. А., Макаров В. О. Цифровизация нормотворчества как отдельный процесс перехода общества на новую ступень развития // *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*. – 2021. – №. 12-2. – С. 101.

YURIST AXBOROTNOMASI

3-SON 5-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 3, ВЫПУСК 5

LAWYER HERALD

VOLUME 5, ISSUE 3

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416